

Date: 7<sup>th</sup> April-2026

AXBOROT XIZMATLARI – DAVLAT ORGANLARI OCHIQLIGI VA RAQAMLI  
KOMMUNIKATSIYASINI TA'MINLOVCHI STRATEGIK INSTITUT SIFATIDA

Quchqorova Sayyora Abdulla qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi magistrant

(e-mail: abdullayevnasayyora391@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada davlat organlari axborot xizmatlarining strategik institut sifatida huquqiy maqomi va ularning ochiqlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilindi. Shuningdek, yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Prezident hujjatlari bilan bir qatorda, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining axborot xizmatlari samaradorligi bo'yicha 2024-yilgi tahliliy hisoboti hamda Ochiqlik indeksi natijalari qiyosiy o'rganildi. Shuningdek, davlat kommunikatsiyasida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashda OECD tamoyillari va Yevropa Ittifoqining "Ishonchli AI" etik yo'riqnomalari kabi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish, *sentiment analysis* va kiberxavfsizlik risklari sharoitida algoritmlar ustidan huquqiy audit o'tkazish zaruriyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Axborot xizmati, strategik institut, ochiqlik indeksi, AOKA hisoboti, xalqaro standartlar, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, *sentiment analysis*, huquqiy mexanizm, jamoatchilik ishonchi, kiberxavfsizlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируется правовой статус информационных служб государственных органов как стратегического института и их роль в обеспечении открытости. Наряду с новой редакцией Конституции и указами Президента, в работе изучены аналитический отчет Агентства информации и массовых коммуникаций (АИМК) за 2024 год по эффективности информационных служб и результаты Индекса открытости. Также освещается необходимость интеграции в национальное законодательство таких международных стандартов, как принципы ОЭСР и этические руководства ЕС по «Доверенному ИИ», при внедрении технологий искусственного интеллекта в государственные коммуникации. Рассматривается важность проведения правового аудита алгоритмов в условиях использования инструментов *sentiment analysis* (анализа настроений) и рисков кибербезопасности.

**Ключевые слова.** Информационная служба, стратегический институт, индекс открытости, отчет АИМК, международные стандарты, цифровая трансформация, искусственный интеллект, анализ настроений, правовой механизм, общественное доверие, кибербезопасность.

**Abstract.** This article analyzes the legal status of government information services as a strategic institution and their role in ensuring transparency. Along with the newly revised Constitution and Presidential decrees, the study examines the 2024 analytical report on the effectiveness of information services by the Agency for Information and Mass Communications (AIMC), as well as the results of the Openness Index. Furthermore, the article highlights the necessity of integrating international standards, such as OECD



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

principles and the EU Ethics Guidelines for Trustworthy AI, into national legislation for the use of artificial intelligence in government communications. It also emphasizes the importance of conducting legal audits of algorithms in the context of sentiment analysis and cybersecurity risks.

**Keywords:** Information service, strategic institution, openness index, AIMC report, international standards, digital transformation, artificial intelligence, sentiment analysis, legal mechanism, public trust, cybersecurity.

**Kirish.** Axborot xizmatlarining davlat va jamiyat o'rtasidagi interaktiv muloqot markaziga aylanishi 2016-yildan boshlangan. O'zbekistonning eng yangi tarixida "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oya mazkur islohotlarning tub mohiyatiga to'liq mos keladi[1,110-bet]. Ushbu tamoyil davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashda ma'naviy-huquqiy asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 33-moddasida har kimning axborotni izlash, olish va tarqatish huquqi hamda davlatning Internetdan foydalanishga sharoit yaratishi mustahkamlangan [2]. Maqsad ochiqlikni ta'minlashning huquqiy, raqamli mexanizmlari va sun'iy intellektning ushbu jarayondagi rolini tahlil qilishdan iborat. Bugungi kunda davlat organlarida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va blokcheyn kabi texnologiyalarni integratsiya qilish xizmat ko'rsatish samaradorligi oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda[3,362-bet]. Ushbu jarayonni amalga oshirishda hukumatlar va fuqarolar o'rtasidagi muloqot ikki tomonlama barqaror aloqa modeliga o'tishi zarurdir[4,13-bet]. Bundan tashqari, davlat organlari axborot xizmatlari tizimli ravishda tashkiliy tinglash arxitekturasini yaratishi kerak [5, 15-bet]. Fuqarolarning axborotga oid konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda hamda sun'iy intellektga asoslangan ochiq va barqaror kommunikatsiya tizimini shakllantirishda olzarb ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** O'zbekistonda davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashning fundamental huquqiy asosi sifatida 2014-yil 5-mayda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi O'RQ-369-sonli Qonunini alohida ta'kidlab o'tish zarurdir. Qonunning 10-moddasida davlat organlari jamoatchilik bilan hamkorlikni aynan axborot xizmatlari orqali amalga oshirishi shartli mustahkamlanagan[6].

So'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar asosida O'zbekistonda axborot xizmatlari faoliyati yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Prezidentning PQ-4366-sonli qarori asosida axborot xizmatlari rahbarlari rahbarning axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi maqomiga ega bo'ldi[7]. Jumladan, ushbu sohani tizimli tartibga solishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-sonli Farmoni muhim hisoblanadi. Mazkur hujjat asosida barcha davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarning 33 ta soha bo'yicha aniq ro'yxati tasdiqlandi. Farmonga muvofiq, davlat xaridlari, xizmat safarlari, xarajatlar smetasi va uning ijrosi kabi ma'lumotlarni har chorakda Ochiq ma'lumotlar [data.egov.uz](http://data.egov.uz) portaliga joylashtirish majburiyati yuklatildi[8]. Shu bilan birgalikda, ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida, davlat organlari



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

faoliyatining ochiqligini real amaliyotga o'tkazish maqsadida 2022-yil 14-iyunda Prezidentning PF-154-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan 2022-yil 1-avgustdan boshlab davlat organlari va tashkilotlari uchun "Ochiqlik indeksi" joriy etildi. Indeks 8 ta indikator asosida baholanib, tashkilotlar faoliyati samaradorligiga qarab yashil, sariq va qizil toifalarga ajratiladi[9]. Farmonning huquqiy kuchi shundaki, u ochiqlikni ta'minlamagan rahbarlarga nisbatan aniq ta'sir choralari belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining Ochiqlik indeksi reytingi natijalarga ko'ra, 2023-2024 yillardagi ko'rsatkichlar mahalliy hokimliklar va markaziy idoralar o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatmoqda[10]. Xususan, davlat organlarining ochiqligini ta'minlash borasidagi vaziyat hali-hanon bir tekis emas. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil yakunlari bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, jami 150 ta respublika darajasidagi tashkilot va idoraning atigi 30 foiz ya'ni 45 tasida ish natijalari yuqori darajada ekanligi qayd etgan[11]. Ushbu statistik ko'rsatkichlar ochiqlikni ta'minlashda axborot xizmati rahbarlarining strategik maslahatchi sifatidagi salohiyati va ularning jamoatchilik oldidagi shaxsiy hisobdorligi hamon yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, rahbarlarning jamoatchilik oldidagi shaxsiy hisobdorligi natijalari hamsust. Monitoring tahlillari shuni isbotlaydiki, respublika bo'yicha o'tkazilayotgan matbuot tadbirlarining atigi 25 foizida birinchi rahbarlar shaxsan ishtirok etayotgan bir paytda, qolgan tadbirlarning asosiy yuklamasi aynan matbuot kotiblari zimmasiga tushmoqda[11]. Tadbirlarning qariyb 50 foizi rahbariyat ishtirokisiz, faqat quyi bo'g'in boshliqlari darajasida o'tkazilgan. Bu natija davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi muloqotda hamon tizimli to'siqlar mavjudligini isbotlaydi[10]. Bu holat ochiq hukumat tamoyillarini real hayotga tatbiq etishda nafaqat rahbarlarning, balki axborot xizmatlarining institutsional nufuzi va moddiy-texnik bazasini tubdan oshirish zarurligini anglatadi

Shu bilan birga, Ochiqlik indeksi natijalari va monitoring tahlillari shuni ko'rsatadiki, davlat organlarining jamoatchilik bilan muloqotida faqat an'anaviy huquqiy va ma'muriy usullarga tayangan. shbu holat kutilgan samarani bermayapti. Zotan, ochiqlik islohotlari demokratik boshqaruvni kuchaytirish va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirishning asosi hisoblanadi[12,14-bet]. Ochiqlikni ta'minlashning an'anaviy usullari yetarli bo'lmagan joyda raqamli transformatsiya, xususan, ilg'or texnologik yechimlar yordamga keladi [13,19-bet]. Raqamli transformatsiya jarayoni xizmatlarni elektron shaklga o'tkazish orqali tashkiliy madaniyat hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning tubdan o'zgartiradi[14,41-bet]. Bugungi kunda boshqaruvning aqlli modellariga o'tish zaruriyati e-hukumatning samaradorlik va xarajatlarni tejashga qaratilgan strategik ehtiyoj sifatida namoyon bo'lmoqda[15, 200-bet]. Ushbu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalarining integratsiya qilinishi ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtiradi va davlat boshqaruvini tranzaksion modeldan relyatsion muloqot bosqichiga olib chiqadi[3, 362-bet].

Shuningdek davlat kommunikatsiyasiga sun'iy intellekt texnologiyalarining kirib kelishi boshqaruvda yangi istiqbolli imkoniyatlarni ochadi. Xususan, *sentiment analysis* ya'ni ijtimoiy tahlil orqali aholining hukumat siyosatiga munosabatini real vaqt rejimida



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

aniqlash imkoniyati yaratiladi. [3,362-bet]. Natijada esa, feyk xabarlar tarqalishi erta bosqichda to'xtatiladi. Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni 7<sup>1</sup>-moddasida AI texnologiyalaridan foydalanish jarayoni shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligiga putur yetkazmasligi shart ekanligi qat'iy belgilangan[16]. Jumladan, generativ sun'iy intellektning *hallucination* xususiyati, ya'ni mavjud bo'lmagan faktlarni haqiqatdek taqdim etishi davlat boshqaruvida strategik xatoliklarga sabab bo'lishi mumkin[17,126-bet]. Shuningdek, kiberxavfsizlik masalalari davlat PR infratuzilmasining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kiberhujumlar natijasida dezinformatsiya tarqalishi jamoatchilik ishonchining yo'qolishiga olib keladi.

Mazkur xatarlarni minimallashtirish uchun raqamli jarayonlarda *human-in-the-loop* ya'ni inson nazorati tamoyilini saqlab qolish muhimdir. Ushbu mexanizm AI tizimlarining avtonom qarorlar qabul qilish doirasini cheklab, yakuniy natija uchun insonning mas'uliyatini saqlab qolishga xizmat qiladi[17, 128-bet]. Shu o'rinda, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishda Yevropa Ittifoqining *Trustworthy AI* ya'ni Ishonchli AI etik yo'riqnomalari[18] va OECD AI tamoyillari[19] boshqaruv modellarini milliy qonunchilikka integratsiya qilishda maxfiylik va xavfsizlik risklarini kamaytirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Mazkur huquqiy integratsiya davlat organlari tomonidan sun'iy intellektni qo'llashda texnik samaradorlikka erishishda *ethics-by-design* etik loyihalash arxitekturasini barpo etish imkonini beradi[17,126-bet]. Shuningdek, AI algoritmlari tomonidan chiqariladigan xulosalarda kamsituvchi holatlar yuz bermasligi uchun algoritmlar ustidan doimiy huquqiy audit o'tkazish talab etiladi. Bu jarayon davlat organlarining jamoatchilik oldidagi axloqiy mas'uliyatini saqlab qolishda strategik ahamiyatga egadir.

**Xulosa va takliflar.** Demokratik barqarorlikning asosiy sharti davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni ikki tomonlama aloqa modeliga o'tkazishdir. O'zbekistonda so'nggi yillarda qabul qilingan huquqiy hujjatlar axborot xizmatlarining institutsional asoslarini mustahkamlab, davlat idoralarining ochiqlik darajasini tizimli baholash imkonini berdi. Ammo, sohani to'liq raqamlashtirish va sun'iy intellektni joriy etish jarayonida kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va algoritmik xolislik kabi etik-huquqiy muammolar hamon dolzarb bo'lib qolmoqda.

Olib borilgan tahlillar asosida davlat kommunikatsiyasi samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi. Axborot xizmati rahbarlarining huquqiy maqomini PQ-4366-sonli qaror asosida davlat organi rahbarining maslahatchisi darajasida qat'iy saqlab qolish. Hamda ularni tashkilotning strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga to'liq jalb etish zarur. Bu PR funksiyasini boshqaruvning strategik instrumentiga aylantiradi. Jumladan, davlat organlarida AI texnologiyalarini qo'llashda inson nazorati tamoyili saqlanishi shart. Algoritmlar tomonidan chiqariladigan xulosalar fuqarolar o'rtasida kamsitishlarga olib kelmasligi uchun algoritmlar ustidan davriy huquqiy va etik audit o'tkazish tizimini yaratish lozim. Bu bilan birgalikda, Ochiqlik indeksi reytingi natijalariga ko'ra *qizil* toifaga tushgan va eng past natija qayd etgan tashkilotlar uchun kadrlar malakasini oshirish bilan bir qatorda, alohida raqamli monitoring tizimini joriy



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

etish lozim. Mazkur tizim PF-154-sonli Farmonda belgilangan majburiy e'lon qilinishi shart bo'lgan ma'lumotlarning rasmiy veb-saytlarga joylashtirilishini real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan holda nazorat qilishi kerak. Bunday raqamli nazorat mexanizmlari OECD tavsiyalariga muvofiq davlat boshqaruvida monitoring madaniyatini shakllantirishga va rahbarlarning jamoatchilik oldidagi shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ochiqlik islohotlarini texnologik innovatsiyalar va huquqiy kafolatlar bilan uyg'unlashtirish, bunda axborot xizmatlarining strategik institut sifatidagi maqomini mustahkamlash fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshirish hamda demokratik barqarorlikni ta'minlashning fundamental asosidir. Zero, axborot xizmatlari faoliyatiga raqamli nazorat mexanizmlarining samarali tatbiq etilishi davlat boshqaruvida yangicha monitoring madaniyatini shakllantirishga va rahbarlarning jamoatchilik oldidagi shaxsiy mas'uliyatini tubdan kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. **Hasanov, R., O'ljayeva, Sh., & Musayev, O.** (2022). *O'zbekistonning eng yangi tarixi*. O'quv qo'llanma. Toshkent: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi» .
2. **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.** (2023). Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: «O'zbekiston» .
3. **Sharmin, S., & Chowdhury, R. H.** (2025). Digital Transformation in Governance: The Impact of e-governance on Public Administration and Transparency. *Journal of Computer Science and Technology Studies*, 7(1), 362-379 .
4. **Kam Tai Tong.** (2025). *AI-Enabled Organisational Listening – Leveraging Artificial Intelligence for a More Relational Approach to Government Communication*. IPS Working Paper No. 61 .
5. **Macnamara, J.** (2016). *Organizational Listening: The Missing Essential in Public Communication*. NY: Peter Lang .
6. **O'zbekiston Respublikasining Qonuni.** (2014). Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida. O'RQ-369-son .
7. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.** (2019). Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PQ-4366-son .
8. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** (2021). Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. PF-6247-son .
9. **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** (2022). Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-154-son .
10. **O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi.** (2024). Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini baholash bo'yicha "Ochiqlik indeksi" reytingi: 2023-2024 yillar qiyosiy tahlili. Toshkent .



Date: 7<sup>th</sup> April-2026

11. **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi.** (2024). Davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmati rahbarlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari: 2024-yil yakuniy tahlili. Toshkent: AOKA .
12. **OECD.** (2023). *Open Government for Stronger Democracies: A Global Assessment.* Paris: OECD Publishing .
13. **Likhtin, A. A.** (2021). Transformation of Public Administration in the Digital Era. *Administrative Consulting*, (4), 18–26 .
14. **Mergel, I., Edelmann, N., & Haug, N.** (2019). Defining digital transformation: Results from expert interviews. *Government Information Quarterly*, 36(2), 101385 .
15. **Madan, R., & Ashok, M.** (2023). AI adoption and diffusion in public administration: A systematic literature review and future research agenda. *Government Information Quarterly*, 40(2), 101774 .
16. **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** (2003). Axborotlashtirish to‘g‘risida. [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/83931> .
17. **Ismail, O., & Ahmad, N.** (2025). Ethical and Governance Frameworks for Artificial Intelligence: A Systematic Literature Review. *International Journal of Interactive Mobile Technologies (iJIM)*, 19(14), 121–136 .
18. **European Commission.** (2019). *Ethics Guidelines for Trustworthy AI.* Independent High-Level Expert Group on Artificial Intelligence (AI HLEG) .
19. **OECD.** (2021). *OECD Report on Public Communication: The Global Context and the Way Forward.* Paris: OECD Publishing.

